## QO'QON SHAHRIDA BO'LIB O'TGAN INVESTITSIYA VA TURIZM XALQARO FORUMI DOIRASIDA YIGIRMADAN ZIYOD KOMPANIYA RAHBARLARI BILAN UCHRASHILDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan investitsiya va turizm xalqaro forumi doirasida Turkiya, Quvayt, Qatar, BAA, Janubiy Koreya, Xitoy, Vengriya, Liviya kabi davlatlarning yigirmadan ziyod kompaniya rahbarlari hamda ishbilarmon doira vakillari bilan uchrashdi.

Uchrashuvlarda hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi, samarali kelishuvlarga erishildi.

Xususan, Turkiyadagi arab tadbirkorlar uyushmasi vakillari, "Amarilla Bau Itd" klasteri (Vengriya), "Qo'qon" ElZda tashkil etilgan Chjunke Shanshen xorijiy korxonasi investori (Xitoy) bilan bo'lib o'tgan qabulda ikki tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha fikr almashildi.

Viloyat rahbari Farg'onada investitsiya va turizm bo'yicha barcha imkoniyatlar yaratilganligini aytib, har bir loyihani qo'llab-quvvatlashini, hamkorlikka tayyorligini bildirdi.

## Bizni ijtimoiy tarmoglarda kuzating

Facebook, Telegram, Facebook, YouTube, Instagram 2024-10-19 13:25:11